

Payg‘ambarimiz ulovga o‘tqazgan bolalar



10:24 / 21.01.2019 8383

Aziz bolajonlar, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sizning tengdoshlaringizga o‘ta mehribon bo‘lganlari haqida bilasizmi? Bu haqda juda ko‘plab hadislar rivoyat qilingan. Keling, ulardan biri bilan tanishamiz.

Abdulloh ibn Ja‘far roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Nabiy sollallohu alayhi vasallam safardan kelsalar, o‘z ahli baytlarining bolalari ila qarshi olinar edilar. Bas, u zot bir safardan kelganlarida qarshilariga avval men olib borildim. Bas, u zot meni oldilariga o‘tirg‘izib oldilar. So‘ngra Fotimaning ikki o‘g‘lidan biri olib kelindi. U zot uni ortlariga mingashtirib oldilar. Biz – uch kishi bir ulov ustida Madinaga olib kirildik».

Muslim va Termiziy rivoyat qilganlar.

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning o‘ta bolajon zot ekanliklari ma‘lum va mashhur. U ishi qachon bolalarni ko‘rsalar, xursand bo‘lib ketar, ularni erkalar edilar. Shuning uchun ham safardan qaytganlarida u zotni xursand qilish maqsadida birinchi bo‘lib ahli baytlaridan bo‘lgan bolachalarni qarshilariga olib borib, kutib olinar edilar. Bu ishdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam juda ham xursand bo‘lar edilar.

O‘shandoq safarlardan biridan qaytayogan Nabiy sollallohu alayhi vasallamning qarshilariga birinchi bo‘lib, Abdulloh ibn Ja‘far roziyallohu anhu olib borilibdi. Bas, u zot uni ko‘tarib olib, o‘z oldilariga, egarga o‘tirg‘izib olibdilar. Bu Abdulloh

ibn Ja'far roziyallohu anhu uchun, albatta, katta baxt. Lekin u kishi o'zlarining undan ham katta baxtga muyassar bo'lganlarini keyingi jumlada bayon qilmoqdalar:

«So'ngra Fotimaning ikki o'g'lidan biri olib kelindi. U zot uni ortlariga mingashtirib oldilar».

Bundan Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning otasidan yosh yetim qolgan Abdulloh ibn Ja'far roziyallohu anhuning ko'ngli uchun o'zlarining mahbub nabiralari Imom Hasan va Imom Husaynlardan birlarini ortlariga mingashtirib, Abdulloh ibn Ja'farni oldilariga olib, Madinagacha kirib borganliklari ko'rinib turibdi. Abdulloh ibn Ja'far roziyallohu anhuning o'zlari esa xuddi shu holatni o'zlari uchun faxr va e'zozga arziydigan narsa deb bilmoqdalar.

«Hadis va hayot» kitobidan